



# CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES ISSN: 2660-5317

*Special Issue, 2022 //*  
**"Challenges and Innovative Solutions of Life Safety in Ensuring  
Sustainability in Economic Sectors"**

## Innovative Methods of Teaching the Discipline Labor Protection

*Nasirova Saodat Shukrullo Kizi-*

*Assistant of the Department of "Life safety" of Tashkent State Technical University.*

*Received 13th Feb 2022, Accepted 15th Mar 2022, Online 7th May 2022*

**Annotation.** Reforming and improving the education system in Uzbekistan is one of the priority tasks. This, in turn, requires updating educational literature on this topic, taking into account the requirements of the present and the latest achievements of science, the introduction of innovative and educational technologies into the educational process. The article discusses the use of brainstorming methods, case studies, work in small groups in the educational process, as well as the advantages and disadvantages of these methods.

**Keywords:** technology, innovative technologies, interactive methods, labor protection, brainstorming, case studies.

**Introduction.** Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy innovasion texnologiyalari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy innovasion texnologiyalarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’limda innovasion texnologiyalarni tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi[1,2].

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan xolda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darjasining ko’tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirilib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, baxsmunozara, muammoli vaziyat, yo’naltiruvchi matn, loyiha, rolli o’ynilar kabi innovasion texnologiyalarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi[3,4].

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda - ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi

bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lган o'qish-o'rghanish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

**Materials and methods.** Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir[5,6].

XXI asrda O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustivor vazifalardan biridir. Bu esa, o'z navbatida xuquqshunos olimlarimiz zimmasiga tegishli o'quv fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan xolda yangilab borish, ta'lim jarayoniga innovasiya va ta'lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Insonlar faoliyati jarayonida uning xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda dolzarb siyosiy masalalardan biridir. Shu sababli, mustaqil Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'naliishlaridan biri ham ishchi-xizmatchilar, ayollar va bolalarning, shu jumladan, balog'at yoshiga yetmagan bolalarning mehnat sharoitini to'g'ri tashkil etishdan iborat. Mehnat muhofazasini ta'minlash juda ko'p jihatdan mehnatni to'g'ri tashkil etish masalalari bilan uzviy bog'liqidir.

Kasbiy sog'liqni saqlash va xavfsizlik sanoatning barcha tarmoqlari, biznes va tijoratning jumladan, an'anaviy sanoat, axborot texnologiyalari kompaniyalari, sog'liqni saqlash xizmati, mehribonlik uylari, mакtablar, universitetlar, dam olish maskanlari va idoralarga tegishlidir [7].

Innovasion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda kelajakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. J.Botkin boshchiligidagi olimlar guruhi "Rim klubi" ma'rzasida innovasion ta'limni an'anaviy, ya'ni "normativ" ta'limga muqobil sifatida bilimlarni egallashni asosiy turi sifatida tavsifladi. Normativli ta'lim "takrorlanuvchi vaziyatlarda faoliyat xulq-atvor qoidalari o'zlashtirishga yo'naltirilgan" bo'lsa, innovasion ta'lim yangi vaziyatlarda birgalikda harakatlanish qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi[8,9].

Ilm-fan va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi jamiyatning iqtisodiy taraqqiy ettirish bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgarishlarning ro'y berishiga zamin yaratmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo'lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta'lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda[10].

"Pedagogik texnologiya" - bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir" (*YuNESKO*) deb ta'kidlagan.

Ma'lumki mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida "Mehnat muhofazasi" fanini o'qitish jarayonida innovasiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi.


Avvalo "Mehnat muhofazasi" fanidagi yangilik nima? Fandagi innovasiya nima? degan savollarga javob berish lozim. Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovasiya so'zları o'rtaşıda farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so'nggi yutuqlar, bilimlar, usullar hisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo'llanilishi bilan innovasiyaga aylanadi.

Bugungi kunda "Mehnat muhofazasi" fanini o'qitishda rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi quyidagi interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalarini qo'llash ta'lim saviyasini oshishiga xizmat qiladi. Quyida shunday interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalarini bir nechtasini keltirib o'tamiz[10].

**Conclusion and discussion.** Jamiyat rivojining bugungi kundagi bosqichi bevosita, texnologiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy texnologik jarayonlar har qanday sohaga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ayniqsa, axborot uzatish tizimida tobora yangi o'zgarishlar va texnologoyalar rivojlanib, kuchayib bormoqda. Insonlarda axborot va kommunikasion texnologiyalar hamda kompyuter texnologiyasidan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda va ular takomillashmoqda.

Respublikamiz ta'lim sohasida ulardan foydalanish o'qitish sifatini oshirishga, o'quvchilarning fikrlash doirasini oshirish va kengaytirishga, ularda mustaqil o'zlashtirish faoliyatini kuchaytirish hozirgi zamonning dolzarb masalasiga aylanib qoldi.

**Interfaol ta'lim** – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining BKM hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.



Interfaol metodlar ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o’qituvchi, talaba va talabalar guruhi o’rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg’in bahs-munozalar, o’zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi. Bu jarayonda ularda

- erkin fikrlash;
- shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish;
- muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash;
- o’quv materiallarini o’zlashtirishda talabalarning o’zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish;
- “o’qituvchi-talaba-talabalar guruhi”ning o’zaro bir-birlarini hurmat qilishlari;
- bir-birlarini tushunishlari;
- bir-birlarini qo’llab-quvvatlashlari;
- bir-birlariga samimiymunosabatda bo’lishlari;
- ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol metodlar mohiyatiga ko’ra suhbatning “talaba-axborot-kommunikasion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o’qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko’nikma, malakalarning o’zlashtirilishini anglatadi.

Eng muhimmi, interfaol metodlarni qo’llash orqali o’qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo’lida o’zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo’naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo’lga kiritadi.

O’quv jarayonining interfaol metodlar yordamida tashkil etilishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o’yini” kabi taassurot uyg’otadi. Biroq, bunda o’qituvchining ma’lum darajada quyidagi omillarga ega

bo'lishi talab qilinadi:

1. Ish tajribasi.
2. Metodik malaka.
3. Tayanch pedagogik-psixologik bilimlar.
4. Tashkilotchilik qobiliyati.
5. Didaktik vositalar (axborot, tarqatma materiallar, dars jihozlari)ga ega bo'lish.
6. Talaba va talabalar guruhi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ishonch va hurmatga asoslanishi.
7. Talaba va talabalar guruhining o'zaro hamkorlikka erisha olish.
8. Ta'lim jarayonida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rinni tutishi.
9. Axborotlarni taqdim etishda xilma-xil metod, vositalarning samarali, o'rinni, maqsadga muvofiq va o'zaro moslikda qo'llashga erishish.

**"Gugurt donalari" strategiyasi.** U o'quv materiallarining talabalar tomonidan o'rganilgan qaydarajada egallanganligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Strategiya talabalarga o'quv materialining mavzusidan kelib chiqqan holda turli muammoli masala yoki vaziyatlarni yaratish, mavzuning asosiy tayanch tushunchalarini ajratib olish, ularni izohlash, tahlil qilish, ta'riflashda yordam beradi. Shuningdek, strategiya mashg'ulot davomida har bir talabaga turli topshiriqlarni individual bajarish, uning ustida mustaqil ishslash imkonini beradi. Bu strategiya talabalarda bir qator tarbiyaviy xarakterdagi, ya'ni: mustaqil ishlay olish; muloqatga kirishuvchanlik; xushfe'lllik; o'zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatning samarali bo'lishiga qiziqish va intilish; o'zini o'zi baholash kabi sifatlarni shakllantirishga yordam berdi.

Ўқитувчи талабаларга гугурт доналари ёки оддий чўплардан истаганча танлаб олишни таклиф этади

Талаба ўз хоҳишига кўра гурурт доначалари  
ёки оддий чўпларни танлайди

Хар бир талаба танланган гугурт доналари ёки оддий чўпларнинг сонига кўра мавзуга oid таянч тушунчаларни ажратиб кўрсатиб, уларнинг ҳар бирига изоҳ беради ёки қоидаларни айтади

**Note:** talabalar tomonidan tanlangan har bir gugurt donasi yoki oddiy cho'p bittadan tushunchani ta'riflash shartligini anglatadi. Shunga ko'ra talaba agarda ikkita gugurt donasini tanlagan bo'lsa, u holda ikkita tushunchani ajratib ko'rsatib, ularni ta'riflaydi. Gugurt donalari sonining ortib borishiga ko'ra

tushunchalar soni va ularga beriladigan ta'riflar miqdori ham ko'payib boradi.

### References.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
2. “Student Response Systems Overview” (2004). Retrieved 19 February 2005 from the University of Minnesota, Office of Classroom Management, Classroom Support web site: [http://www.classroom.umn.edu/notes/support\\_srs.html](http://www.classroom.umn.edu/notes/support_srs.html).
3. “Student Response Systems” Teaching at Mizzou: A Guide for New Faculty, Graduate Instructors and Teaching Assistants website. Retrieved 4 March 2005 from: <http://teachandlearn.missouri.edu/guide/chapters/> activelearning. htm.
4. Sulaymonovich S. S., Murtozayevich N. S. Studying and accounting sports injuries //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 7. – S. 759-763.
5. Shovqiddin N. et al. Prevention Of Sport Injuries //Solid State Technology. – 2020. – T. 63. – №. 6. – S. 11868-11875.
6. Shovkiddin Narziev, Sunnatilla Sulaimanov. To the investigation of the tension of the inter-cracked ligaments knee joint //International Journal of Research Available at https: Volume 06 Issue 01 January 2019. 731-735 page.
7. Sulaimanovich S. S., Murtozaevich H. S. Causes and Prevention of Athlete Injuries During Training Sessions and Competitions //JournalNX. – S. 325-329.
8. Narziev S. et al. Theoretical analysis of the causes of injury in sports activities and their reduction measures //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. S2. – S. 166-170.
9. Ishmuhamedov R., Mirsaliyeva M “O'quv jarayonida innovasion ta'lim texnologiyalari” Toshkent 2014 y.
10. Narziyev Shovkiddin Murtozayevich, Raximova Aziza Xusan Kizi PRIMENENIYE I ANALIZ PEDAGOGICHESKIX METODOV V UChEBNOM PROSESSE // TECHika. 2021. №1 (5). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/primenie-i-analiz-pedagogicheskikh-metodov-v-uchebnom-prosesse> (data obrazeniya: 08.04.2021).